



ISPAN TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING  
O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDAGI MUAMMOLARI

*Usmonaliyeva Bahora Abduvali qizi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

[\*usmonaliyevabahora@gmail.com\*](mailto:usmonaliyevabahora@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: Achilova Zulxumor Po'latovna*

*achilovazulxumor@mail.ru*

*Tel: 93-571 31 70*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ispan tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari, semantik va stilistik jihatlari tarjima jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida ispan va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinib, ularni tarjima qilishda ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz birliklar aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** *frazeologik birliklar, ekvivalentlik, lingvo madaniyat, kontent tahlili, ispan tili, o'zbek tili, madaniy tafovut.*

**Abstract:** *This article analyzes the main challenges that arise in the process of translating phraseological units from Spanish into Uzbek. The study scientifically examines how the national and cultural characteristics, as well as the semantic and stylistic features of phraseological units, influence the translation process. In the course of the research, Spanish and Uzbek phraseological units are subjected to a comparative analysis, as a result of which equivalent, partially equivalent, and non-equivalent units are identified.*

**Keywords:** *phraseological units, equivalence, linguoculture, content analysis, Spanish language, Uzbek language, cultural differences.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе перевода фразеологических единиц с испанского языка*



на узбекский. С научной точки зрения рассматривается влияние национально-культурных, семантических и стилистических особенностей фразеологических единиц на процесс перевода. В ходе исследования проводится сопоставительный анализ фразеологических единиц испанского и узбекского языков, в результате которого выявляются эквивалентные, частично эквивалентные и безэквивалентные единицы.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, эквивалентность, лингвокультура, контент-анализ, испанский язык, узбекский язык, культурные различия.

## **Kirish qismi.**

Ispan tilidagi frazeologik birliklar o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ko'plab muammolar paydo bo'ladi. Bularning asosiy sababi frazeologik birliklarning ma'nosi so'zlarning alohida ya'ni kontekstdan tashqaridagi ma'nolaridan farq qiladi. Frazeologik birliklar tilning o'ziga xosligi, urf-odatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ularni to'g'ri tarjima qilish ma'no buzilishini yoki notarial talqinlar yuzaga kelishini oldini oladi. Agar bunday xatoga yo'l qo'ysak tarjimaning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ispan tilidagi frazeologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilish mobaynida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, frazeologik birliklarni tarjima qilishda uchraydigan semantik, madaniy va lingvistik farqlarni ochib berish hamda ularni o'zbek tilida mazmunan to'g'ri va tabiiy ifodalash yo'llarini ko'rsatish ko'zda tutiladi.

Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, u barqaror so'z burmalari, iboralar va idiomalarni o'rganadi. Frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar alohida-alohida emas, balki, yaxlit holda bitta umumiy ma'noni anglatadi. Masalan, ispan tilidagi "estan en las nubes" iborasi so'zma-so'z bulutlarda bo'lish ma'nosini bersa-da, aslida "xayol surmoq" degan ko'chma ma'noni anglatadi. Bizningcha, A.V. Kunin tomonidan ilgari surilgan frazeologik birlik ta'rifi ushbu



tushunchani aniq ifodalashga xizmat qiladi <sup>1</sup> Uning fikricha, frazeologik birlik — bu tarkibiy qismlari alohida ma’noga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ammo frazeologik darajada barqarorlikka ega so‘zlar birikmasidir (Kuzmin, 2007). Mashhur tarjimashunos V.N. Komissarovning ta’kidlashicha, ayrim frazeologik birliklar shakliy o‘xshashlik tufayli “tarjimonning soxta do‘stlari” toifasiga kiradi va bu holat boshqa tilda mos ekvivalentni tanlashni murakkablashtiradi <sup>2</sup> (Komissarov va Koralova, 1999).

## Metodologiyasi

1. Mazkur tadqiqotda ispan tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir qator lingvistik metodlardan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy (chog‘ishtirma) metod asosida ispan va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar o‘zaro taqqoslanib, ularning semantik va strukturaviy o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Ushbu metod frazeologik birliklarning har ikki tildagi funksional xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

2. Shuningdek, tipologik metod orqali ispan va o‘zbek tillariga xos bo‘lgan milliy-madaniy xususiyatlar, frazeologik birliklarning shakllanishi va qo‘llanishidagi o‘ziga xos jihatlar tahlil qilindi. Bu metod tarjima jarayonida madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladigan muammolarni aniqlash imkonini berdi.

3. Tadqiqot davomida distributiv tahlil metodidan ham foydalanilib, frazeologik birliklarning nutq jarayonidagi o‘rni, ularning atrofidagi leksik birliklar bilan munosabati va qo‘llanish kontekstlari o‘rganildi. Bundan tashqari, bevosita tashkil etuvchilarni ajratish metodi yordamida frazeologik birliklarning ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari tahlil qilindi.

4. Kontent tahlil metodi.

5. Statistik tahlil metodi.

<sup>1</sup> Kunin, A. V. (1996). Phraseology of modern English. Moscow: Vysshaya Shkola.

<sup>2</sup> Komissarov, V. N., & Korolova, A. L. (1999). Translation theory. Moscow.

Ispan frazeologik birliklarini tarjima qilishdagi asosiy muammolar mavzusida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma ispan tili bilan shug'ullanuvchi 9 nafar respondent ishtirokida o'tkazildi. Olingan natijalar ispan tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi.


## 6. Tajriba sinov metodi.



Diagramma natijalariga ko'ra, respondentlarning 55,6 foizi ispan tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda eng katta muammo sifatida so'zma-so'z tarjimaning mos kelmasligi belgilangan. Bu holat frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga egaligi bilan izohlanadi. Shuningdek, respondentlarning 33,3 foizi madaniy tafovutlar tarjima jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini bildirgan. Qolgan muammolar- o'zbek tilida ekvivalentning yo'qligi, kontekstga bog'liqlik hamda lug'atlarda yetarli izohlarning mavjud emasligi- respondentlarning 22,2 fozi tomonidan qayd etilgan.



2-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 33,3 foizi ispan frazeologik birliklarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonini o'rtacha darajada qiyin deb belgilashgan. Shu bilan birga, respondentlarning 22,2 foizi mazkur jarayonni juda oson, 22,2 foizi oson hamda 22,2 foizi qiyin deb baholagan. Ushbu natijalar frazeologik birliklarni tarjima qilish darajasi tarjimonning tajribasi, til bilimi va kontekstni aniqlashiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.



Histogramma natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati (66,7%) ispan va o'zbek madaniyati o'rtasidagi farqlar frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatishini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 22,2 foizi madaniy omil tarjimaga qisman ta'sir qiladi deb hisoblagan bo'lsa, 11,1 foizi esa bu omilning sezilarli ta'siri yo'qligini bildirgan. Mazkur natijalar frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvomadaniy yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ispan tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida to'liq ekvivalentlik to'liq ekvivalentlik kam ahamiyatga ega. Tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida har doim ham so'zma-so'z tarjimaning mos emasligi, ya'ni kontekstga bog'liq ekanligini, hamda madaniy tafovutlar tarjima jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. Keyingi natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak, frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish darajasi tarjimonning



tajribasi, til bilimi va konteksni aniqlashiga bog'liq ekanini ko'rsatadi va frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvomadaniy yondashuvlar ahamiyati kattaligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotimiz davomida 17-18 yoshli boshlang'ich darajadagi tarjima sohasiga kirib kelayotgan 9 nafar ayol talabalar faol ishtirok etdilar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning to'liq ekvivalentligi kam hollarda saqlanadi. Bu natija Jakobson(1959) tomonidan ilgari surilgan "equivalence in difference" tushunchasi bilan mos keladi,<sup>3</sup> ya'ni tarjimada formal moslik har doim ham saqlanmaydi, balki ma'noning asosiy funksiyaysi muhim hisoblanadi. Shuningdek, Nida (1964) ta'kidlaganidek dinamik ekvivalentlik yondashuvi bu holatni tushuntiradi:<sup>4</sup> tarjimonlar frazeologik birliklarning kommunikativ ta'sirini saqlashga intiladi, natijada so'zma-so'z moslik qisman yo'qoladi. Keyingi tadqiqotlardan ma'lumki, Enkvist (1991:14-15) aytganidek, "tarjima ma'noni qayta tiklashdan tashqari o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi, shuning uchun matnni tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat tegishli tillarni, balki ularning madaniyati va ritorik an'analarini ham bilishi kerak"<sup>5</sup>- degan fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi. So'rovnomada respondentlarning 55,6 %i har doim ham so'zma-so'z tarjimaning mos kelavermasligini belgilashgan va bu odatda notog'ri talqinlarga olib kelgani kuzatilgan. Bu natija, Vinay va Darbelnet(1958) tomonidan kiritilgan bilvosita (egri) tarjima tushunchasi bilan bog'lanadi.<sup>6</sup>

Tarjimonlar manba tilidagi frazeologizmlarni maqsad tilida tabiiy va tushunarli qilish uchun turli strategiyalar – parafraz, funksional ekvivalentlik va kontekstual adaptatsiya – qo'llashga majbur bo'lgan. Ayniqsa, madaniy jihatdan boy frazeologik birliklar bevosita tarjimada qiyinchiliklar tug'diradi, bu Venuti (1998) va Toury(2000) ta'kidlagan madaniy farqlar ta'siri bilan izohlanadi.<sup>7</sup>Shuningdek,

<sup>3</sup> Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R. A. Brower (Ed.), Harvard University Press.

On translation (pp. 232–239).

<sup>4</sup> Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. Brill

<sup>5</sup> Enkvist: Enkvist, N. E. (1991). From text to discourse: Pragmatics and text linguistics. Longman.

<sup>6</sup> Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). Stylistique comparée du français et de l'anglais. Didier.

<sup>7</sup> Toury, G. (2000). Descriptive translation studies and beyond. John Benjamins.



respondentlarning 22,2 % i o'zbek tilida ekvivalent yo'qligini belgilashgan. Bu ekvivalent ko'pla muammolarni keltirib chiqaradi. U tarjima tadqiqotlari rivojiga to'sqinlik qiluvchi tushuncha yoki matnni tahlil qilish uchun foydali kategoriya sifatida baholanadi. Ba'zan u "zararli"<sup>8</sup>(Gentzler, 1993) yoki ahamiyatsiz ( Snell-Hornby, 1988: 5-bob) deb hisoblanadi. <sup>9</sup>Shunga qaramay , lingvistik birliklar-morfemalar, so'zlar, so'z biriklamalari, gaplar, idiomalar va maqollar darajasida ko'pincha ekvivalent atamasi ishlatiladi<sup>10</sup> (Baker, 1992: 5-6) kabi fikrlar bilan izohlash mumkin. Xulosa sifatida, Maluku-Morina, M (2013) ta'idlaganidek , "tarjimani shaxmat kabi to'liq ma'lumotga ega o'yin bilan taqqoslash mumkin,<sup>11</sup> bunda har bir keyingi harakat oldingi barcha harakatlarni hisobiga oladi".

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ACHILOVA Zulxumor. "Ispan tili siyosiy nutkini o'zbek tiliga tarjima qilishda leksik, stilistik qiyinchiliklari va uni yengib o'tish imkoniyatlari." News of the NUUZ 1.1.5. 2 (2024): 254-256.
2. Achilova Z.P. Cognitive characteristics of expressions expressing the concept of "Edad" in spanish – "PEDAGOGS" international research journal T. 6. – №. 64. – C. 87-94.
3. Achilova Z.P. "Ispan va o'zbek tilida edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlilidagi umumiy va farqli stilistik xususiyatlar". "Global Scientific Review" International Journal. Volume №38 April 2025. C.115-122.
4. Achilova, Z. P. "Ispan va o'zbek tillarida "EDAD" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlari." Экономика и социум 5-1 (120) (2024): 71-77.
5. Maluku-Morina, M. (2013). Translation issues. Academic Journal of Interdisciplinary Studies, 2(4), 163–170.

---

Venuti, L. (1998). The scandals of translation: Towards an ethics of difference. Routledge.

<sup>8</sup> Gentzler, E. (1993). Contemporary translation theories. Routledge

<sup>9</sup> Snell-Hornby, M. (1988). Translation studies: An integrated approach. John Benjamins.

<sup>10</sup> Baker, M. (1992). In other words: A coursebook on translation. Routledge.

<sup>11</sup> Maluku-Morina, M. (2013). Translation issues. Academic Journal of Interdisciplinary Studies, 2(4), 163–170.



6. Subbotina, V. (2013).
7. Challenges of translating phraseological units. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 70, 1487–1492
8. Kunin, A. V. (1996). *Phraseology of modern English*. Moscow: Vysshaya Shkola.
9. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
10. Gentzler, E. (1993). *Contemporary translation theories*. Routledge.
11. Toury, G. (2000). *Descriptive translation studies and beyond*. John Benjamins.
12. Venuti, L. (1998). *The scandals of translation: Towards an ethics of difference*. Routledge.
13. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). *Stylistique comparée du français et de l'anglais*. Didier.